INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

Muhammad Sharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi o‘zbek xalq maqollari tarkibida mavjud bo‘lgan o‘lchov birliklarining lingvistik tahlili

To‘ymurodov Dilshodjon Dilmurodovich
BuxDU 10.00.01 (o‘zbek til) 1-bosqich tayanch doktaranti
E-mail: d.d.toymurodov@buxdu.uz
Tel: 90 613-78-74

Annotatsiya: O‘rta Osiyo xalqlari azal-azaldan ilm-fanga bo‘lgan muhabbati tufayli boshqa xalqlardan ajralib turadi. Bu yerlarda davlatchilik asoslarining paydo bo‘lishi natijasida, davlat g‘aznasiga tushadigan turli soliqlarning miqdorlarini o‘lchash va aniqlash zarurati, o‘lchov birliklarining paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi.

O‘lchov tushunchasini izohlaydigan bo‘lsak: u fizik miqdoriy darajani o‘lchov vositalari yordamida empirik tarzda topish jarayonidir.

“Chumchuq semurub botmon bo`lmas”

Chumchuqlar- to`qimachilar oilasiga mansub qushlar urug`i. 17 turi bor. Rangi har xil turi ko`p. O`troq, ko`chib yuruvchi va mavsumiy qushlar. Daraxt, bino va boshqa joylarga uya quradi.O`simlik urug`lari va mevalari bilan oziqlanadi.

1 Botmon — 78 pudga yoki 128 kg.ga teng (O‘z.T.I.L. T. 21-b).

Xalq og‘zaki ijodidan keltirilgan bu maqolda har bir inson so‘zining o‘z yuki va vazni mavjud bo‘lishiga qaramay, maqtanchoq insonlarga qop-qop va’dalar berishi lekin amalda bularning bari puch yong‘oqga aylanib qolishi kinoyali tarzida ifodalangan. Gulxaniy “Zarbulmasal” asarida bu maqolni keltirish orqali qahramonlar qiyofasini o‘quvchiga tiniqroq yoritib berishga harakat qiladi.

Sani ahvoling olamg‘a ma’lum. “Oyni etak bilan yoshurub bo‘lmas”, “Chumchuq semurub botmon bo‘lmas” (12-bet).

Kalit so‘zlar: Maqol, botmon, dahsar, tutam, chumchuq, tandir

Аннотация: Народы Средней Азии всегда отличались от других народов любовью к науке. В результате зарождения основ государственности на этих землях необходимость измерения и определения размеров различных налогов, попадающих в государственную казну, стала основой возникновения единиц измерения. Если объяснить понятие измерения: это процесс эмпирического нахождения физического количественного уровня с помощью измерительных инструментов. «Воробей не может потолстеть и стать толстым»

Воробьи — род птиц, принадлежащий к семейству ткацких. Существует 17 типов. Есть много разных цветов. Оседлые, перелетные и сезонные птицы. Строит гнезда на деревьях, в зданиях и других местах. Питается семенами и фруктами растений. (м.и.ч. стр. 166)

1 денщик равен 78 фунтам или 128 кг.

В этой пословице, взятой из фольклора, несмотря на то, что слово каждого человека имеет свою тяжесть и вес, иронично выражено, что хвастливые люди дают много обещаний, но на деле все они превращаются в пустые орехи. Цитируя эту пословицу в произведении «Зарбулмасал», Гульхани пытается прояснить читателю образ героев.

Ваше состояние известно всему миру. «Юбкой луну не спрячешь», «Воробья не растолстеешь и не станешь толстым» (с. 12).

Ключевые слова: Пословица, денщик, дахсар, тутам, воробей, тандыр.

Abstract: The peoples of Central Asia have always been distinguished from other peoples because of their love for science. As a result of the emergence of the foundations of statehood in these lands, the need to measure and determine the amounts of various taxes falling into the state treasury

became the basis for the emergence of measurement units. If we explain the concept of measurement: it is the process of empirically finding a physical quantitative level using measuring tools. "A sparrow can't get fat and become fat"

Sparrows are a genus of birds belonging to the weaver family. There are 17 types. There are many different colors. Sedentary, migratory and seasonal birds. It builds nests in trees, buildings and other places. It feeds on plant seeds and fruits. (m.i. ch. p. 166)

1 batman is equal to 78 pounds or 128 kg.

In this proverb, taken from folklore, despite the fact that each person's word has its own burden and weight, it is expressed in an ironic way that boastful people make a lot of promises, but in practice all of them turn into empty nuts. By quoting this proverb in the work "Zarbulmasal", Gulkhani tries to clarify the image of the heroes to the reader.

Your condition is known to the world. "You can't hide the moon with a skirt", "You can't make a sparrow fat and become fat" (p. 12).

Key words: Proverb, batman, dahsar, tutam, sparrow, tandir

KIRISH

O‘rta Osiyo xalqlari azal-azaldan ilm-fanga bo‘lgan muhabbati tufayli boshqa xalqlardan ajralib turadi. Bu yerlarda davlatchilik asoslarining paydo bo‘lishi natijasida, davlat g‘aznasiga tushadigan turli soliqlarning miqdorlarini o‘lchash va aniqlash zarurati, o‘lchov birliklarining paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi. O‘lchov tushunchasini izohlaydigan bo‘lsak: u fizik miqdoriy darajani o‘lchov vositalari yordamida empirik tarzda topish jarayonidir.

MUHOKAMA

Soliqchilar turli xil yer kengliklari, mahsulotlar og‘irligi, chorvalarning miqdoriga qarab soliq yig‘ar edilar. XVII-XIX asrlarda Qo‘qon va Xiva xonliklari, Buxoro amirligidagi botmon, dahsar, tutam o‘lchov birliklari ularning turli geografik kengliklarda joylashganligi munosabati bilan farqlanadi va hududiga qarab turli xil miqdoriy o‘zgarishlarni hosil qiladi. XIX asr oxirlaridanoq O‘rta Osiya hududlarini egallab olishga harakat qilayotgan rus qo‘shinlari XX asr boshlarida katta muvofaqqiyatlarga erishdi va 1918-yildan boshlab Markaziy Osiyo hududlarida qo‘llanadigan bu turli o‘lchov birliklari o‘rniga hamma uchun bir xil o‘lchov birliklarini (mm, dm, sm, m, km, gr, kg, st, t, v.h.k) joriy etishdi.

Xalq og‘zaki ijodi bo‘lmish maqollar o‘troq va ko‘chmanchi qabilalarning urfodatlari, ananalari qatorida ular foydalangan turli o‘lchov birliklarini ham bizgacha bus-butun saqlagan holda olib kelmoqda. Bu esa xalqimiz tarixida mavjud bo‘lgan, hozirda unitilayozgan o‘lchov birliklarini kelajak yoshlar uchun saqlab qolish ehtiyojini paydo qiladi.

O‘zbek adabiyoti o‘zining taraqqiy etish bosqichlari davomida juda katta yo‘lni bosib o‘tdi. Mahmud Koshg‘ariyning (Devoniy lug‘attit turk) asari bilan boshlangan turkiy xalqlarning yozma adabiyoti keyinchalik ijodkorlarning turli janrlarda ijod etishlari bilan kengaya bordi. Bular orasida XVIII-XIX asrlarda ijod etgan Muhammad

Sharif Gulxaniy ijodi o‘zining o‘ziga xosligi, noananaviyligi bilan ajralib turadi. Uning

“Zarbulmasal” asari didaktik janrda yaratilgan asarlardan farqli ravishda pand nasihatni yumshoqlik donolik mativi asosida emas balki majoziy qahramonlar asos qilingan holda kinoya, tag ma’no orqali avom xalqga tushunarli bo‘lishi uchun xalq maqollaridan foydalangan holda yozilganligi ahamiyatlidir. Asar tarkibida o‘zbek xalq maqollari ko‘p uchraydi. Chunonchi: ular orasida o‘lchov birliklari ham ifodalangan maqollar mavjud. Yuqorida ta’kidlaganimizdek bu maqollarni tahlil etish, maqollarda ifodalangan o‘lchov birliklari zamirida yotgan tag ma’nolarni aniqlash maqolamizga qo‘yilgan ustuvor maqsadlardan biridir.

NATIJALAR

“Chumchuq semurub botmon bo`lmas”

Chumchuqlar- to`qimachilar oilasiga mansub qushlar urug`i. 17 turi bor. Rangi har xil turi ko`p. O`troq, ko`chib yuruvchi va mavsumiy qushlar. Daraxt, bino va boshqa joylarga uya quradi.O`simlik urug`lari va mevalari bilan oziqlanadi. (m.i.ch.166-bet)

1 Botmon — 78 pudga yoki 128 kg.ga teng (O‘z.T.I.L. B. 21-b).

Xalq og‘zaki ijodidan keltirilgan bu maqolda har bir inson so‘zining o‘z yuki va vazni mavjud bo‘lishiga qaramay, maqtanchoq insonlarga qop-qop va’dalar berishi lekin amalda bularning bari puch yong‘oqga aylanib qolishi kinoyali tarzida ifodalangan. Gulxaniy “Zarbulmasal” asarida bu maqolni keltirish orqali qahramonlar qiyofasini o‘quvchiga tiniqroq yoritib berishga harakat qiladi.

Sani ahvoling olamg‘a ma’lum. “Oyni etak bilan yoshurub bo‘lmas”, “Chumchuq semurub botmon bo‘lmas” (Zarbulmasal 12-bet).

“Xotun olmoqqa qunt kerak, kunda dahsar et kerak”

Dahsar- og`irlik o`lchov birligi. Mamlakatimizning ko`p viloyatlarida, ayniqsa

Buxoro va Samarqand viloyatlarida qo`llanib (19-asr) qiymati 1 mann (ba’zi joylarda 32 kg)ga teng bo`lgan (O‘z.T.I.L. D. 12-b).

.Oila mustahkamligini targ‘ir qiluvchi yuqoridagi xalq maqolida er yigitlarni turmush so‘qmoqlarida qoqilmasliklari uchun oila boshi bo‘lishga tayyorlash, ayoli va farzandlari kelajagi uchun g‘amxo‘rlik qilish ustuvor vazifa ekanligi ifodalanmoqda.

Orada turmoq dag‘dag‘asi manda yo‘q. Nechukkim aytmishlar: “ Xotun olmoqqa (qunt) kerak, kunda dahsar et kerak” (Zarbulmasal 11-bet).

“Haromzodani quyrug`i bir tutam”

Maqolning variantlari: “Haramzaning quyrug`i- bir tutam”

Haramza- daraxtning hali pishmay turib, kasallanib, sarg`ayib, so`lib, og`rib tushgan mevasi. Poliz ekinlari- qovun, tarvuz, qovoq, bodring vahokazolarning shunday og`rigan hosili. Odamning va hayvonning bevaqt, bemahal, bemavrid tug`ilgan bolasi.

Majoziy ma’noda: qallob, ko`z bo`yamachi, ayyor, firibgar, noinsof, iflos. Yuqoridagi maqol bilan aldam-qaldam ishlar bilan shug`ullanuvchi, nopok, noinsof, qallob odamlarning qilmishi butunlay yopdi-yopdi bo`lib ketmaydi, yaqin fursatda fosh bo`ladi va ular tegishli jazolarini tortadilar demoqchi.

Bir tutam – narsalarning tutamlash yoki siqimlash mumkin bo‘lgan miqdori; panjaning shuncha miqdorni oladigan (tutadigan) holati (O‘z.T.I.L. T. 27-b).

Yuqoridagi uchta maqoldan ko‘rinib turibdiki xalqimiz o‘lchov birliklarini turmush kundalik hayotida ishlatish bilan birga o‘zining donolik xazinasi bo‘lmish xalq maqollarida ham mohirona ishlatadi.

“Haromzodani quyrug`i bir tutam” va lekin haromzodalik sarmanzilidin o‘tgan kishi emasman (Zarbulmasal 15-bet).

“Nomi kalon, shahri vayron, oti ulug‘, suprasi quruq, uyida chaksa uni yo‘q, tomini boshida qo‘sh tandir”.

Chaksa- O`zbekiston hududidagi qadimiy o`lchov birligi. Asosan, pudning 1/3 qismiga teng bo`lgan. O`zbekistonning Koson, Namangan, Sirdaryo, Farg`ona viloyatlarida, Tojikistonning Xo`jand shaharlari atroflarida hozir ham aholi tomonidan foydalaniladi (O‘z.T.I.L. Ch. 448-b).

1 Pud - metrik o‘lchovlar tizimi qabul qilinganiga qadar qo‘llangan, 16,38 kilogrammga teng og‘irlik o‘lchov birligi (O‘z.T.I.L. P.13-b).

Un-turli ekinlar donini tegirmonda tortib hosil qilinadigan oziq-ovqat maxsuloti. Un ko`proq bug`doydan tayyorlanadi. Undan non, non maxsulotlari tayyorlanad.

Tandir-non, somsa, kabob tayyorlash uchun loydan qurilgan o`choq. Buxoro, Samarqandda tandir yerga yoki maxsus supaga og`zi tik qilib qurilsa, Farg`ona vodiysi va Toshkentda yotiq qilib ornatiladi.

Supra - Xamir yoyish, non yasash uchun mo‘ljallangan, odatda oshlangan teridan qilinadigan dasturxonsimon ro‘zg‘or buyumi (O‘z.T.I.L. S. 23-b)

Bu maqolda ko`pincha o`zi dong`i ketgan boy bo`laturib,ziqnalik qiladigan,”to`rtta” odamni bundoq uyiga chaqirib,dasturxon yozmaydigan,faqat o`zining falonchiligidan kerilib,mag`rurlanib yuradigan odamlarga nisbatan kinoya tariqasida qo`llaniladi (Hikmatnoma 326-bet).

Yana masaldurkim, “Ayoz haddingni bil, barchani qo’y, o‘zingni bil!”, “Nomi kalon, shahri vayron, oti ulug‘, suprasi quruq, uyida chaksa uni yo‘q, tomini boshida qo‘sh tandir”(Zarbulmasal 13-b).

XULOSA

Gulxaniy “Zarbulmasal” asarida keltirilgan o‘zbek xalq maqollarni tahlil qilish natijasida quyida xulosalari kelirish mumkin:

1. O‘zbek xalq maqollarida keltirilgan turli o‘lchov birliklari avalambor

Buxoro amirligi, Xiyva va Qo‘qon xonligida yashovchi o‘troq xalqning donoligi, korchalonligi va ilmdan chuqur xabardor ekanligi ayon bo‘lsa,

2. Turkiy tilda so‘zlashuvchi Buxoro amirligi, Xiyva va Qo‘qon xonliklarida ishlatiladigan o‘lchov birliklarining leksik-semantik negizida qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalarining o‘ziga xosligi aks etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qayumov P. Qo`qon adabiy muhuti.-Toshkent, 1961, 156-bet.
2. Муҳаммад Шариф Гулханий. Зарбулмасал.-Тошкент, 1974
3. (17,27,29,32,35).
4. ЎМЭ. Тошкент, 2016 (9-10,26-27,80,185,193,478,860).
5. Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. Hikmatnoma. –Toshkent,1990(326-b).
6. O‘z.T.I.L. 5 jildlik, –Toshkent,2021
7. Б. Саримсок,ов Узбек халк маколлари. –Тошкент Узбекистан ССР “ФАН” нашриёти,1981
8. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – “O‘qituvchi” Nashriyot –Matbaa Ijodiy uyi Toshkent, 2011